

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil**

LOGOPEDIYA I

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110300–Maxsus pedagogika (logopediya)

Fan/mavzu kodi Log1406		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 6	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Logopediya I	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalarini to‘g‘ri tanlay olish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi - talabalarga nutq buzilishlarni keng tarqalganligi, alomatlari, darajasini aniqlash, nutq buzilishlarini pedagogik diagnostikasi, metodlari, bartaraf etish metodikalarini o‘rgatishdan iborat. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Til va nutq terapiyasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Milan universiteti (Italiya)ning Til va nutq terapiyasi fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 267-o‘rinni egallagan bo‘lib, o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Milan universitetining Speech teraphy kursida nutqiy nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy nutqiy munosabatlarini o‘rganish amaliyoti ham keng yoritiladi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar BKM holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o‘rganadilar. II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-modul* (1, 2, 3, 4-mavzular). Nutq va lifonoterapiya tamoyillarini tanqidiy tushunish natijasida yuzaga keladigan ilg‘or nazariy bilimlar. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari. Nutq va til terapevtlarining vazifalarini bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar. Nutq tovushi, yutish, til va muloqot buzilishlarini erta aniqlash uchun skrining vositalaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlarni targ'ib qilish va amalga oshirish. Bemorlarda bu qobiliyatlarni baholash uchun nutq tovushi va til ishlab chiqarish, muloqot va yutish tamoyillariga tayanish. Nutq buzilishlari etiologiyasi. Nutqning				

anatomik-fiziologik mexanizmlari. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillari. Nutq buzilishlarini tasniflash. Logopedik ta'sir tamoyillari va metodlari. Barcha yosh guruhlaridagi bemorlarda nutq va til buzilishlarining oldini olish va davolash uchun ta'lim reabilitatsiya modellari.

2-modul (5, 6, 7-mavzular). Nutq faoliyatining xususiy patologiyasi

Ovoz buzilishlari. Ovoz apparati va hiqildoqning ovoz hosil qilishi funksiyasi. Ovoz apparatining akustikasi va ovozning akustik tuzilishi. Ovoz huruji. Rigistrlar. Ovoz paydo bo'lishi nazariyalari. Bolalar ovozinin rivojlanishi. Ovoz buzilishlarining etiologiyasi. Ovoz buzilishlarini kelib chiqish sabablari va mexanizmi. Ovozda o'zgarishlar (buzilishlar) ning sabablari va turlari. Ovoz buzilishining tasnifi. Organik ovoz buzilishlari, (xiqildoq harakatining buzilishi, surunkali laringit, kichik xirurgik operatsiyadan keyingi ahvol). Funksional ovoz buzilishlari (parezlar, fonosteniya, funksional afoniya, patologik mutasiya).

Ovoz buzilishlarini bartaraf etish. Ovoz buzilishlari profilaktikasi va ovoz gigiyenasi.

3-modul. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar.

Dislaliya (8, 9, 10, 11, 12 -mavzular). O'zbek tili tovushlari tasnifi. Bolalarda nutq tovushlarini ontogeneza shakllanishi va rivojlanishi. Dislaliya haqida tushuncha. Dislaliyani o'rganish tarixi. Dislaliya sababallari. Funksional va mexanik, monomorf va polimorf, oddiy va murakkab displaliya. Dislaliya turlari (sigmatizm, rotasizm, lambdasizm, kappasizm, yumshatish nuqsonlari). Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokining buzilishi (fonetik, fonematik va fonetik-fonematik). Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi. Tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etish usullari. Logopedik ish davrlari: tayyorlov, tovushni nutqqa qo'yish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushlarni ajratish (differensiasiyalash), tovushni nutq faoliyatiga kiritish. Har bir davrning vazifasi va ish usullari. Turli xil sigmatizmni bartaraf etish. Rotasizm va lambdasizmni bartaraf etish. Til orqa (k, g, x) va chuqur til orqa (q, g') tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Rinolaliya. Rinolaliyani o'rganishning tarixi. Buzilish mexanizmi, sabablari va uni aniqlash. Logopedik yordam ko'rsatishni rivojlantirish. Rinolaliya shakllari. Ochiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya. Aralash rinolaliya. Tanglaydagi tug'ma yoriqlarning bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri. Rinolaliyada nutqning o'ziga hos xususiyatlari. Rinolalik bolalarga kompleks, ya'ni tibbiy-pedagogik ta'sir logopedik ishning bir qismi sifatida. Ochiq rinolaliyada logopedik ishning asosiy tamoyillari. Operatsiyagacha va operatsiyadan keyin olib boriladigan logopedik ish metodikasi. Rinolaliyada tovushlarni nutqqa qo'yishning o'ziga xos hususiyatlari. Rinolaliyada ovoz buzilishi va uni korreksiyalash.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Logopediya fanining maqsadi va vazifalari

2. Logopediya fanining metod va tamoyillari
3. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmi
4. Nutq buzilishlarini etiologiyasi
5. Nutq buzilishlarining tasnifi
6. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar va undagi logoped ishi bilan tanishish
7. Ovoz buzilishlari, uning sabablari va mexanizmi
8. Ovoz buzilishlarini tekshirish metodikasi
9. Ovoz buzilishlarini bartaraf etish
10. Mashg'ulotlarda bolalar nutqini kuzatish.
11. Dislaliya sabablari va shakllari
12. Dislaliya turlari va uning namoyon bo'lishi
13. Tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqini logopedik tekshirish metodikasi
14. Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi
15. Nutq kartasi bilan ishlash
16. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini tekshirish boyicha anamnestik ma'lumotlarni tahlil qilish
17. Tovushlarni nutqga qo'yish (postanovka) uchun mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash
18. Tovushlarni nutqda mustahkamlash (avtomatizasiya) uchun mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash
19. Tovushlarni nutqda farqlash (differensasiya) uchun mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash
20. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini leksik – grammatik tomonini tekshirish bo'yicha didaktik materiallar tayyorlash
21. Rinolaliya, uning sabablari va belgilari.
22. Rinolaliya nutq kamchiligiga ega bolalarni logopedik tekshirish metodikasi
23. Rinolaliyani bartaraf etishda operasiyagacha va operasiyadan keyingi davr.
24. Rinolaliyada ovoz va nafas ustida ishlash. Dizartriyani o'rganishning ilmiy nazariy asoslari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhviy o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriylar modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimedialiy taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Nutq kamchiliklarining oldini olish va bartaraf etishni o'rganish uchun logopediya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
2. Nutq faoliyatida anatomo-fiziologik va psixolingvistik aspektlari.
3. Ovoz hosil bo'lishi haqidagi turli xil nazariy qarashlar.
4. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda S.L.Taptapova metodikasini adabiyotlardan foydalangan holda konspekt qiling.
5. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda E.S.Almazova metodikasini adabiyotlardan foydalangan holda konspekt qiling.
6. Dislaliyani o'rganish tarixi.
7. Umumiy artikulyatsion gimnastika kompleksi va tovushlarni postanovkaga tayyorlash uchun qo'llaniladigan maxsus mashqlar ish daftaringizga yozing.
8. Tovushlar talaffuzini bartaraf etish va fonetik idrokni rivojlantirish.
9. Dislaliya nutq kamchiligiga ega bolalar uchun mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlang.
10. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini leksik – grammatik tomonini tekshirish bo'yicha didaktik materiallar tayyorlash
11. Rinolaliya, uning sabablari va belgilari.
12. Rinolaliya nutq kamchiligiga ega bolalarni logopedik tekshirish metodikasi
13. Rinolaliyani bartaraf etishda operatsiyagacha va operatsiyadan keyingi davr.

	14. Rinolaliyada ovoz va nafas ustida ishlash. Dizartriyaning o'rganishning ilmiy nazariy asoslari
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: • nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalari xususida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan holda to'g'ri tanlay olishi, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nuqsonlarini tasniflash, korreksiyalash, maxsus adabiyotlarni taxlil etish, bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun didaktik materiallarni tanlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • talaba korreksion logopedik jarayonni nazariy-amaliy tahlil etish, ta'limni tashkil etish shakllari, usullarini amalda samarali qo'llash, ota-onalar bilan ishlash, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiya nazariyasini amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi; (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va usullari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kryeditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar 1. M.Maxmudova. Logopediya. O'quv qo'llanma. Faarg'ona.: 2020 2. Ayupova M.Yu. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2024 y. 3. M.Maxmudova "Mutaxassislikka kirish" o'quv qo'llanma Farg'ona 2022

4. Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari. M.Xovodillayev Darslik. 2024 y.
5. Logoritmika. Darslik. L.Xayitov, I.Haydarov, M.Xonboboyeva 2024 Toshkent

IX. Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

4.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni.

Axborot manbaalari

1. <http://www.edu.uz>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
3. <http://www.gov.uz>– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.
4. www.pedagog.uz
5. www.apkpro.ru/content/view

	6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 7. https://www.unimi.it/en/education/undergraduate-programmes
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sullar va mualliflari: M.S.Maxmudova – QDPI Pedagogika va psixologiya fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD) M.Xovodillayev- QDPI Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: L.R.Xayitov – QDPI Pedagogika va psixologiya fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası mudiri p.f.b.f.d (PhD)